O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vazirligi
Jamoatchilik kengashi majlisining

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son Farmoni to‘g‘risida.
2. Hududda axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va belgilangan vazifalar to‘g‘risida.

Mas’ul kotib **Sh.Axmatov**

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar
Vazirligi Jamoatchilik
kengashi raisi o‘rinbosari

O.A. Pekos

2023-yil 17-mart

Raqamli texnologiyalar vazirligi Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
B A Y O N I

2023-yil 16-mart 1 -son Toshkent sh.

Ishtirok etganlar: Jamoatchilik kengashi a’zolari, Vazirlik markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari hamda tizimdagi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son Farmoni to‘g‘risida

(O.Pekos, Jamoatshilik kengashi a’zolari..., O.Pekos)

Kun tartibidagi masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son Farmoni ijrosini amalga oshirish bo‘yicha vazivalar muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qilingan ma’ruza hamda bildirilgan fikr va mulohazalar asosida vazifalar **belgilandi:**

1. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini amalga oshirish bo‘yicha Raqamli texnologiyalar vazirligining yo‘l-xaritasi muhokama qilindi.

2. Vazirlik boshqarma, bo‘lim boshliqlari, Vazirlik tizimidagi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari mazkur tasdiqlangan “Yo‘l-xaritasi”ning ijrosini sifatli ta’minlashi belgilandi.

3. Vazirlikning Axborot xizmati (Sh.Axmatov) O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligi tomonidan tasdiqlangan “media reja”ga asosan davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan keng jamoatchilikka ommaviy axborot vositalari orqali hisobot berib borishi belgilandi.

Mas’ul kotib **Sh. Axmatov**